



1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2024-yil 30-iyundagi “Yoshlar siyosatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. UNESCO Youth Development Index, 2023.
3. O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li. (2025). INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMODAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. *TA’LIM VA TARAQQIYOT*, 4(4), 380-388.
4. R.A.Tursunov. (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT UYG‘UNLIGINING IJTIMOIIY MUHITGA TA’SIRI. *ZAMONAVIIY FAN: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA YOSH TADQIQOTCHILARNING DOLZARB IZLANISHLARI*, 1(1), 16-19.

1917–1945-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA MAKTAB VA PEDAGOGIKA FANI

Jo‘rayeva Barchinoy Behzod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakultet Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Xayrullayeva Farangizbonu Bekzod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakultet Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1917–1945-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda maktab ta’limi tizimi va pedagogika fanining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Shu davrda Sovet hokimiyatining ta’lim siyosati, yangi o‘quv dasturlari va milliy kadrlar tayyorlashdagi islohotlarning o‘rni yoritiladi. Pedagogika fani shakllanishida Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlarning o‘rni va ularning ilmiy-pedagogik merosi tahlil etiladi. Shuningdek, ta’lim tizimida yuzaga kelgan muammolar va ularning yechimlari tarixiy dalillar asosida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston tarixi, pedagogika fani, maktab islohoti, Sovet davri ta’limi, ma’rifatparvarlik, milliy kadrlar, 1917–1945-yillar.

SCHOOL AND PEDAGOGICAL SCIENCE IN UZBEKISTAN (1917–1945)

Abstract: This article analyzes the formation and development stages of the school education system and pedagogical science in Uzbekistan during the period from 1917 to 1945. It highlights the role of Soviet educational policy, the introduction of new curricula, and reforms in the training of national specialists. The study also examines the contribution of enlighteners such as Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, and Munavvarqori Abdurashidkhanov to the establishment of pedagogical science and explores their scientific and educational legacy. In addition, the article substantiates, through historical evidence, the main problems that arose in the education system and the ways in which they were addressed.

Keywords: History of Uzbekistan, pedagogical science, school reform, Soviet education, enlightenment movement, national specialists, 1917–1945.

ШКОЛА И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НАУКА В УЗБЕКИСТАНЕ (1917–1945 ГОДЫ)

Аннотация: В данной статье анализируются этапы формирования и развития системы школьного образования и педагогической науки в Узбекистане в период с 1917 по 1945 годы. Освещается роль образовательной политики Советской власти, внедрение новых учебных программ и реформ по подготовке национальных кадров. Особое внимание уделено вкладу просветителей — Абдурауфа Фитрата, Абдуллы Авлони и Мунавваркори Абдурашидханова — в становление педагогической науки и их научно-педагогическому наследию. Кроме того, на основе исторических фактов рассматриваются основные проблемы системы образования и пути их решения.

Ключевые слова: история Узбекистана, педагогическая наука, школьная реформа, советское образование, просветительство, национальные кадры, 1917–1945 годы.

Kirish

XX asr boshlarida O‘zbekistonda ta’lim tizimi tub o‘zgarishlarga yuz tutdi. 1917-yildan boshlab sovet hokimiyati o‘rnatilishi bilan maktablar faoliyatida yangi siyosiy va mafkuraviy tamoyillar shakllandi. Dastlabki yillarda savodsizlikni tugatish, xalq ommasini yangi ijtimoiy hayotga tayyorlash maqsadida



“Likbez” harakati yo’lga qo’yildi. Shu jarayonda milliy ziyolilar ta’limni modernizatsiya qilish va pedagogika fanini ilmiy asosda rivojlantirishga harakat qildilar.

1917–1945-yillarda O‘zbekistonda ta’lim va pedagogika fanining rivojlanish jarayoni nafaqat siyosiy tuzumning ta’siri bilan, balki milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy uyg‘onish ehtiyoji bilan ham chambarchas bog‘liq edi. Bu davrda xalq ta’limi tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviy o‘qituvchilarni tayyorlash va o‘quv dasturlarini milliy ruhda shakllantirish zarurati paydo bo‘ldi.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” (1918) asarida ta’limning axloqiy va tarbiyaviy mohiyatini ilmiy asoslab bergan. U o‘qituvchini jamiyatning “eng muqaddas kasb egasi” sifatida ta’riflab, har bir pedagog o‘z xalqining ma’naviy kamoloti uchun javobgar ekanini ta’kidlagan. Bu g‘oya keyinchalik sovet davrida shakllangan “ijtimoiy mas’ul pedagog” konsepsiyasi bilan uyg‘unlashdi.[1]

Abdurauf Fitrat esa “O‘qituvchilar uchun qo‘llanma” (1923) asarida o‘quv jarayonining metodik asoslarini ishlab chiqdi. U zamonaviy dars o‘tish jarayonini o‘quvchining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerakligini uqtirdi. Fitratning bu yondashuvi XX asr o‘rtalarida shakllangan sovet metodikasi bilan uyg‘unlashib, milliy ta’lim modelining asosini tashkil etdi.[2] Shuningdek, J. Jalolov (2018) o‘zining “Innovatsion pedagogika asoslari” asarida bu tarixiy bosqichni innovatsion yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilib, o‘sha davrda paydo bo‘lgan ilk metodik tajribalar keyingi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimining modernizatsiyasiga zamin yaratganini ko‘rsatadi. [3]

N. To‘xtayeva (2021) o‘z tadqiqotlarida 1917–1945-yillar oralig‘idagi pedagogik tajribalar bugungi ta’lim texnologiyalarining ildizini tashkil etishini ta’kidlaydi. Ayniqsa, o‘qitish jarayonini interfaol, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish g‘oyalari shu davrning pedagogik merosida o‘z aksini topgan.[4]

M. Karimov (2005) esa tarixiy manbalar asosida bu davrda amalga oshirilgan islohotlarning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Uning fikricha, 1930-yillarda tashkil etilgan pedagogika institutlari va o‘qituvchilar tayyorlash kurslari O‘zbekistonda ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga asos yaratgan.[5]

Asosiy muammolar

1. Ta’limning mafkuraviylashuvi: Sovet mafkurasi asosida o‘quv dasturlarining shakllanishi natijasida milliy qadriyatlar va diniy ta’lim tizimi chetga surildi.[6]
2. Milliy kadrlar tanqisligi: 1920–1930-yillarda o‘zbek o‘qituvchilar sonining kamligi sababli rus mutaxassislariga tayanishga to‘g‘ri keldi.
3. Pedagogika fanining ilmiy bazasining sustligi: Dastlabki yillarda o‘zbek tilida pedagogik adabiyotlar va o‘quv qo‘llanmalar yetarli emas edi.
4. Urush yillarining ta’siri (1941–1945): Ikkinchi jahon urushi yillarida maktablar faoliyatida uzilishlar, o‘qituvchilarning frontga jo‘natilishi natijasida ta’lim sifati pasaydi.

Yechimlar va rivojlanish yo‘nalishlari:

1. Milliy pedagogika asoslarini yaratish: Abdulla Avloniy va Fitratlarning asarlari o‘zbek pedagogikasining nazariy poydevorini shakllantirdi.
2. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish: 1930-yillarda pedagogika institutlari tashkil etildi, bu milliy o‘qituvchilar sonining oshishiga olib keldi.
3. Ilmiy-tadqiqot faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi: 1940-yillarda pedagogika fanining o‘ziga xos yo‘nalishlari vujudga keldi; bolalar psixologiyasi, metodika, didaktika bo‘yicha ilk tadqiqotlar olib borildi. [7]
4. Ta’lim tizimining yagona davlat standartiga o‘tkazilishi: Barcha maktablarda bir xil o‘quv dasturi joriy etilib, o‘quv jarayonining sifatini barqarorlashtirishga erishildi. ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga asos yaratgan.

Xulosa:

1917–1945-yillar O‘zbekiston ta’limi va pedagogika fanining shakllanish davri bo‘lib, bu davrda sovet mafkurasi bilan birga milliy pedagogik tafakkur ham rivoj topdi. Dastlabki qiyinchiliklarga qaramay, o‘zbek ziyolilari milliy ta’lim tizimining ilmiy, metodik va ma’naviy asoslarini yaratishda katta hissa qo‘shdilar. Mazkur davr tajribasi bugungi ta’lim islohotlari uchun tarixiy saboq va metodik asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy, A, Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 1918.
2. Fitrat, A, O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. Buxoro, 1923.
3. Jalolov, J, Innovatsion pedagogika asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.



4. To‘xtayeva, N, Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Karimov, M, O‘zbekiston ta’lim tizimi tarixidan lavhalar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005.
6. Qodirova, D, O‘zbekiston xalq ta’limi tizimi taraqqiyoti tarixi (1917–1991). Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2010.
7. Hasanov, B, XX asr o‘zbek pedagogik tafakkuri taraqqiyoti. Toshkent: Fan nashriyoti, 2016.
8. O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MUSIQA TA’LIMDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI. *TA’LIM VA TARAQQIYOT*, 4(3), 607-613.
9. Botirova Sevara Mamurovna, Tursunov Ramziddin Abdixalil o‘g‘li. (2025). MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORI. *MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORI*, 1(1), 98-102.

BOLALIKDAN O‘SMIRLIKKA O‘TISHDAGI PSIXOLOGIK O‘ZGARISHLAR VA RUHIY SALOMATLIK MUAMMOLARINI OLDINI OLIISH STRATEGIYALARI

Axmedov Baxtiyor Shodiyorovich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy havfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi
Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrkasi o‘qituvchisi, Oriental Universiteti 2-kurs magistranti,
rezervdagi podpolkovnik

Annotatsiya: Bolalikdan o‘smirlikka o‘tish davri inson rivojlanishining eng murakkab bosqichlaridan biri bo‘lib, unda jismoniy, emotsional, kognitiv va ijtimoiy o‘zgarishlar kuchayadi. Ushbu maqolada ushbu o‘zgarishlarning psixologik jihatlarini, ruhiy salomatlik muammolarining paydo bo‘lish mexanizmlari va ularning uzoq muddatli oqibatlari tahlil etiladi. Jahon va milliy (O‘zbekiston) olimlarining tadqiqotlari asosida oldini olish strategiyalari, shu jumladan oilaviy, maktab va jamiyat darajasidagi intervensiyalar muhokama qilinadi. Maqola empirik ma’lumotlar va nazariy modellarga tayanib, ruhiy salomatlikni saqlashning samarali usullarini taklif etadi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik tranzitsiyasi, psixologik o‘zgarishlar, ruhiy salomatlik, oldini olish, intervensiyalar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПРИ ПЕРЕХОДЕ ОТ ДЕТСТВА К ПОДРОСТКОВОМУ ВОЗРАСТУ И СТРАТЕГИИ ПРОФИЛАКТИКИ ПРОБЛЕМ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ

Ахмедов Бахтиёр Шодиёрович

Преподаватель кафедры национальной гордости и воинского патриотизма Высшей школы подготовки сержантов Военного университета безопасности и обороны Республики Узбекистан,
студент 2-го курса магистратуры университета Ориентал, подполковник запаса

Аннотация: Переход от детства к подростковому возрасту – один из самых сложных этапов развития человека, в течение которого усиливаются физические, эмоциональные, когнитивные и социальные изменения. В статье анализируются психологические аспекты этих изменений, механизмы возникновения проблем психического здоровья и их долгосрочные последствия. На основе исследований мировых и отечественных (узбекских) учёных рассматриваются стратегии профилактики, включая вмешательства на уровне семьи, школы и общества. В статье, основанной на эмпирических данных и теоретических моделях, предлагаются эффективные методы поддержания психического здоровья.

Ключевые слова: подростковый переход, психологические изменения, психическое здоровье, профилактика, вмешательства.

PSYCHOLOGICAL CHANGES IN THE TRANSITION FROM CHILDHOOD TO ADOLESCENCE AND STRATEGIES FOR PREVENTING MENTAL HEALTH PROBLEMS

Akhmedov Bakhtiyor Shodiyorovich